


## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3461,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,2 % ni tashkil etdi.


### 2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, trln. so'm



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 2763,9 mlrd. so'mga teng bo'lган.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 697,9 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-oktabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 353,0 mlrd. so'mga ko'paydi.

### 2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (120,8 mlrd. so'mga), transport xizmatlari savdo xizmatlari (74,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (56,1 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (15,9 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


*Ma'lumot uchun: 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari 110,7 mlrd.so'm, transport xizmatlari 69,5 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar 27,2. mlrd so'mga oshgan.*

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3461,8</b>	<b>112,2</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	195,6	114,0
moliyaviy xizmatlar	470,6	145,9
transport xizmatlari	695,4	106,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	534,5	103,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	141,9	102,9
savdo xizmatlari	1240,2	105,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	73,1	105,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	122,6	113,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	31,6	106,5
ijara xizmatlari	60,1	106,5
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	63,9	102,9
shaxsiy xizmatlar	90,7	102,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115,6	214,4
boshqa xizmatlar	160,3	104,4

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (214,4 %), moliyaviy xizmatlar (145,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (113,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,5 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


### **2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar, kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar va yashash va ovqatlanish xizmatlari (102,9 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining uchdan ko'proq qismini savdo xizmatlari tashkil etadi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 35,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (20,1 %), moliyaviy xizmatlar (13,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %) egallaydi.

## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi




Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1240,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidagi ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 240,5 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 82,6 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



■Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

■Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 5,7 % ni egallaydi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 470,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 145,9 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,7 %) katta salmoqqa egadir.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 141,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 2,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,1 % ga yetdi.

### **2018 yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 87,0 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 13,0 % ga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3591,4 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 10,5 % ni tashkil qildi.



### Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

**71-230-84-37**

**79-223-63-31**